

Ta’limiy maqsad: O’quvchilarga MS Word matn protsessori haqida ma’lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: O’quvchilarga estetik tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi vazifasi: O’quvchilarning amaliy dasturlarda ishslash malakasini oshirish.

Ijtimoiyfaol fuqarolik kompetensiyasi: Jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirot etish;

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi: Aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarни tuza olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdarligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish

Darsning jahozi: EHM, MS Word matn protsessori

Darsning uslubi: Ko’rsatmalilik asosida suhbat.

Darsning borishi.

| Bosqichlar | Bajariladigan ishlар | Vaqti | Metodi | Vositasi |
|------------------------------|---|-------|--|--|
| I. Tashkiliy qism | 1. Salomlashish, tanishish va davomatni aniqlash | 3 | Bugungi yangiliklar bugunga tegishli ma’lumotlarni yodga olish | Taqdimot Suhbat |
| II. Asosiy qism | 1. O`tgan mavzuni mustahkamlash | 7 | Kichik jamoalarda ishslash | Doska, bo’r. Kamchilik va e’tibor berilmay qolgan tushunchalar belgilab boriladi. Rag’bat kartochkalari. |
| | 2. Yangi dars bayoni | 16 | Ma’ruza shaklida amaliy tarzda o’quvchilarga bajariladigan ishlар tartibi bajarib ko`rsatiladi | Interaktiv doska, matn muharrirlari dasturlari |
| | 3. Yangi darsni mustahkamlash | 13 | Do`stigma albatta yordam beraman. Kichik guruhlar bilan ishslash | Topshiriq yozilgan tarqatmalar, rag`bat kartochkalari |
| III. O`quvchilar ni baholash | O`quvchilarni dars davomida olgan rag`bat kartochkalari jamlanib, ularga mos ballar qo`yiladi | 4 | “Imkoniyatlar” metodi. Bunda savollar bali yetmayotgan o`quvchiga berilagi, natijada o`quvchi balini ko`tarish imkoniyatiga ega bo`ladi. | Slaydda animatsion “Imkoniyatlar metodi” slaydi va uning savollari, rag`bat kartochkalari |
| IV. Uyga vazifa | O`quvchilarga uyda bajarish uchun topshiriqlar | 2 | Darslikning 14-sahifasidagi 4-5-mashqlar | Slaydda misol raqami, betlari va na`munaviy bajarilgan ish yakuni. |

I. Tashkiliy qism: 3 daqiqa

- O'quvchilar bilan salomlashish;
- O'quvchilar davomatini anioqlash;
- Yo'qlamani aniqlash
- Navbatchi axboroti.
- Bugun ma'lumotlari.

Bunda o'quvchilarga bugunni eslatuvchi qisqacha ma'lumotlar beriladi;

II. O'tgan mavzularni takrorlash. 7 daqiqa

- a) Matnlarni qayta ishslashning o'tmishi va buguni.
- b) Matn muharrirlari va matn protsessorlarining asosiy farqi.
- d) Matn muharriri qanday fayllar hosil qiladi?

III. Yangi mavzuni o'rgansh. 16 daqiqa

Matn protsessorlari matnning faqat mazmuni emas, balki tashqi ko'rinishi ham katta ahamiyatga ega bo'lganda qoilaniladi. Matn protsessorlari matnning tashqi ko'rinishiga ta'sir etish imkoniyatiga ega. Masalan, matnga turli rasm va jadvallar joylashtirish, belgilarning o'lchami, rangi va korinishlarini o'zgartirish va hokazo.

Matn protsessorlari odatda rasmiy hujjatlar tayyorlashda ko'p qoilaniladi. Matn protsessori yordamida tayyorlangan niam *hujjat* deb yuritiladi.

Matn protsessori yordamida hosil qilingan hujjat faqat-gina matn emas, balki uning tashqi ko'rinishi haqidagi (shrift turi, o'lchami, rangi va hokazo) axborotni ham o'zida saqlaydi. Ular maxsus kodlar bo'lib, ekranda ham, qog'ozda ham ko'rinxaydi.

Turli matn protsessorlarida matnni bezatish uchim turli kodlar qo'llaniladi. Bunday hollarda hujjatlar har **xil formatga** ega deyiladi. Shu sababli **formatlangan matnli hujjatlarni** bir matn protsessoridan boshqasiga olib o'tishga har doim ham erishib bo'lmaydi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib matn ko'rinishidagi axborotlarni qayta ishslash usullari va yo'l-yo'riqlarini hozirgi kunda eng mukammal matn protsessorlaridan biri bo'lgan Microsoft Office 2010 paketiga kiritilgan Microsoft Word 2010 (qisqacha Word) matn protsessori misolida ko'rib chiqamiz. U juda ko'p amallarni bajara olishi bilan boshqa matn protsessorlaridan ajralib turadi. Word grafik interfeysga ega bolib, aksariyat buyruq va amallar „sichqoncha" yordamida amalga oshiriladi.

Word bir vaqtida bir nechta hujjat bilan ishslash imkoniyatiga ega. Har bir hujjat „oyna" deb ataladigan maxsus ishchi maydonida tashkil etiladi. Oynalarning o'lchami va joylashish tartibini foydalanuvchi o'z xohishiga qarab belgilab oladi.

Word matn protsessorining imkoniyatlari :


1. matnni kiritish, taxrir qilish va ko'zdan kechirish ;
2. qator oraliqlari abzasini o'rnatish ;
3. avtomatik tarzda matnni sahifalarga bo'lish;
4. matn qismini ajratish va uni kerakli joyga nushalash;
5. hujjat mundarijasini tuzish ;
6. matematik ,kimyoviy formilalarni yozish;
7. har xil shriflarda-oddiy, quyuq ,og'ma ,tagiga chizib yozish;
8. bir vaqtida bir nechta oynada bir nechta hujjat tayyorlash tahrir qilish, biridan ikkinchisiga ko'chirib o'tish ;
9. matnda xar hil shakl va rasmlardan foydalanish;
10. turli ma'lumotli jadvallar tuzish ,ular ustida arifmetik operatsiyalar bajarish;
11. aftofiguralar chizish, titul varaqalarini jihozlash va shu kabi yana bir turkum ishlarni bajarish mumkin.



WORD INTERFEYSI

Ishga tushirilgan MS Word dasturi interfeysida (quyidagi rasm) **sarlavha satri**, **menyular satri**, **tasma**, **ish sohasi** va **holat satri** aks etadi.

Sarlavha satrida Microsoft Word dasturida ishlanayotgan hujjatning nomi, ish faoliyatida juda ko'p qo'llaniladigan tugmalarni o'zida mujassamlashtira oladigan **tezkor panel** hamda tugmalari aks etadi. Odatda, hujjatga nom berilmagan bo'sha, sarlavha satrida **Документ1 (Hujjat1)** nomi aks etib turadi.



Menyular satridagi har bir **меню** o‘ziga xos (yuqoridagi rasmida shtrix chegarali to‘rburchak ichida ko‘rsatilgan) **тасма** bilan bog‘langan.

Tasmalar matn protsessori bilan ishlashda qulaylik hamda imkon beradigan tugmalarni o‘z ichiga olgan (Paint dasturi uskunalar panelini eslang). Amaliy ishlarni bajarayotganingizda, asosan, quyidagi menyular tasmalaridan foydalanasiz: **Fayl** (Файл), **Bosh** (Главная), **Joylashtirish** (Вставка), **Sahifani belgilash** (Разметка страницы), **Ko‘rinish** (Вид).

Ish sohasining kattaroq qismini ko‘rish zarur bo‘lsa, u holda **7** tugma yordamida **tasmani** «yig‘ib» ham qo‘yish mumkin.

Tasmalar, o‘z navbatida, qo‘llanadigan obyektiga hamda vazifasiga mos **nom** bilan birlashtirilgan tugmalarning **mantiqiy guruhalardan** iborat.

Masalan, yuqoridagi rasmida tasvirlangan **Bosh** (Главная) menyusi tasmasi **Буфер обмена**, **Шрифт**, **Абзац**, **Стили** va **Редактирование** kabi mantiqiy guruhlardan iborat.

Har bir menu hujjat tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, tasmasi vertikal yo‘nalishda aks etadigan **Fayl** menyusi yordamida ishlanayotgan hujjat fayli ustida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

| | |
|--|--|
| Сохранить Сохранить как Открыть Закрыть Сведения Последние Создать Печать Сохранить и отправить Справка Параметры Выход | <ul style="list-style-type: none"> • (hujjatni birinchi marta yoki joriy) saqlash; • (boshqa nomda yoki papkada) saqlash; • (mavjud hujjatni) ochish; • (joriy hujjatni) yopish; • joriy hujjat haqida ma’lumotlar; • oxirgi (ko‘rilgan hujjatlar); • (yangi hujjat) hosil qilish; • (hujjatni) chop etish; • (hujjatni) saqlash va jo‘natish; • ma’lumot (olish); • (dasturning) parametrlari; • (dasturdan) chiqish. |
|--|--|

Holat satri foydalanuvchiga joriy sahifa, hujjatdagi jami sahifalar soni, matndagi so‘zlar miqdori, yozish tili va boshqalar haqida ma’lumot beradi.

HUJJATGA OID DASTLABKI ATAMALAR


Avvalgi darsda shrift atamasi bilan tanishgan edingiz. Matn protsessorlarida ishlaganda hujjatlarga oid quyidagi atamalarni ham bilish lozim.

So‘z belgilar ketma-ketligi bo‘lib, ular bir-biridan probel, nuqta, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, qavs, tire, uzun tire yoki qo‘shtirnoq kabi belgilar bilan ajralib turadi.

Satr – bitta chiziqdagi yozilgan so‘zlar, harflar yoki belgilar ketmasetligi. Matn protsessorlari satr oxirida sig‘may qolgan so‘z yoki belgini keyingi satrga avtomatik o‘tkazadi.

Hoshiya – sahifa chetidagi toza saqlanadigan qism.

Bosh satr – hoshiyadan chekinishi bo‘lgan satr.



Abzas (nemischa: matnning bo‘limi) – bosh satri bo‘lgan satrlar ketma-ketligi. Bitta fikr haqidagi bir nechta gap alohida abzas ko‘rinishida ifodalanadi. Abzaslar boshqalaridan chekinishi, yozuv stili (uslubi, masalan, oddiy, asosiy, Sarlavha1), intervali (satrlar orasining kengligi) bilan farqlanishi mumkin. Yangi abzasga o‘tish yoki bo‘sh abzas (satr) qoldirish uchun Enter klavishi bosiladi. Bosh satr haqida yozilgan bitta gap ham, abzas haqida yozilgan beshta gap ham abzasga misol bo‘ladi.

Matn – abzaslar to‘plami.

Fragment (lotincha: bo‘lak) – san’at asari, matnning bo‘lagi.

Sahifa – kitob yoki daftar varag‘ining bir tomoni. Matn protsessorlarida sahifa bir bosma qog‘ozga mos keladi.

Format (lotincha: shakl beraman) – o‘lcham, shrift shakli, chizma ko‘rinishi, intervalni aniqlash yoki boshqa ko‘rinish berish. Yuqorida keltirilgan shrift xususiyatlari shriftning formatiga misol bo‘ladi.

Microsoft Word dasturining xususiyatlaridan biri vorislik bo‘lib, keyingi shrift avvalgi shriftni, keyingi abzas avvalgi abzasni, yangi sahifa avvalgi sahifa formatlarini o‘zida to‘liq saqlab qoladi.

Matn protsessoridagi amallarning ba’zilari bilan **Paint** dasturi orqali tanishgan edingiz. Shuning uchun hech bir qiyinchiliksiz amalda qo’llay olasiz. Nom berib saqlangan hujjat **Word** dasturida ham, odatda, **Paint** dasturidagi kabi **Мои документы** (qisqa nomi **Документы**) papkasida saqlanadi.

IV. Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar 13 daqiqa

1. Word matn protsessorini ishga tushirish usullarini amalda ko‘rsatibbe ring.
2. Word dasturida ishni tugallash usullarini amalda ko‘rsatib be ring.
3. Word matn protsessorining interfeysi nimalardan iborat?
4. Fayl menyusi qanday amallardan tashkil topgan?
5. Qaysi menu yordamida nusxalash mumkin?
6. Matnni formatlash deganda nima tushuniladi?
7. Matnga jadval joylashtirish va formatlash uchun qaysi menu qoilaniladi?
8. Word dasturi haqida ma'lumot qanday olinadi?
9. Microsoft Word matn protsessorining uskunalar paneli qanday vazifani bajaradi?

V. O`quvchilarni ballarini qo`yish va e`lon qilish 4-daqiqa:

VI. Uyga vazifa 2 daqiqa

Darslikning 14-sahifasidagi 4-5-mashqlar.